

SOLIQ SIYOSATINING TADBIRKORLIK MUHITIGA TA'SIRI

Sohibov Azizbek Dilshod o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot Universiteti

Buxgalteriya hisobi fakulteti 2-kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatining tadbirkorlik muhitiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida soliq stavkalari, imtiyozlar, soliq ma'muriyatchiligi va soliq yuki dinamikasi chuqur o'rganilgan. Maqolada 2024-2025-yillar uchun qabul qilingan soliq islohotlari, ularning kichik va o'rta biznesga ta'siri, shuningdek yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bayon etilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, soliq siyosati maqsadli ravishda tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirishga qaratilgan. Maqolada stat.uz, lex.uz va soliq.uz rasmiy saytlaridan olingan statistik ma'lumotlar va qonunchilik hujjatlari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq siyosati, tadbirkorlik muhiti, soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, yashirin iqtisodiyot, kichik biznes, soliq islohotlari, byudjet daromadlari, investitsiya muhiti, soliq ma'muriyatchiligi.

Abstract: This article analyzes the impact of tax policy on the business environment in the Republic of Uzbekistan. The study thoroughly examines tax rates, benefits, tax administration, and tax burden dynamics. The article describes tax reforms adopted for 2024-2025, their impact on small and medium-sized businesses, as well as measures being implemented to reduce the shadow economy. The analysis results show that tax policy is purposefully aimed at stimulating entrepreneurial activity, improving the investment environment, and sustainably increasing state budget revenues. The article develops practical recommendations based on statistical data and legislative documents obtained from the official websites stat.uz, lex.uz, and soliq.uz.

Keywords: tax policy, business environment, tax rates, tax benefits, shadow economy, small business, tax reforms, budget revenues, investment climate, tax administration.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние налоговой политики на предпринимательскую среду в Республике Узбекистан. В ходе исследования тщательно изучены налоговые ставки, льготы, налоговое администрирование и динамика налоговой нагрузки. В статье описаны налоговые реформы, принятые на 2024-2025 годы, их влияние на малый и средний бизнес, а также меры, принимаемые по сокращению теневой экономики. Результаты анализа показывают, что налоговая политика целенаправленно направлена на стимулирование предпринимательской деятельности, улучшение

инвестиционной среды и устойчивое увеличение доходов государственного бюджета. В статье разработаны практические рекомендации на основе статистических данных и законодательных документов, полученных с официальных сайтов stat.uz, lex.uz и soliq.uz.

Ключевые слова: налоговая политика, предпринимательская среда, налоговые ставки, налоговые льготы, теневая экономика, малый бизнес, налоговые реформы, бюджетные доходы, инвестиционный климат, налоговое администрирование.

Kirish

Soliq siyosati mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydigan asosiy vositalardan biridir. U davlat byudjetining shakllanishini ta'minlash bilan birga, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish yoki cheklash orqali iqtisodiyotning barcha sohalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida soliq siyosatining asosiy vazifasi shundaki, u bir tomondan davlat byudjetining barqaror moliyaviy bazasini yaratishi, ikkinchi tomondan esa biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratib, investitsiyalarni jalb qilishi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishidir.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar doirasida soliq tizimini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. 2024-2025-yillar uchun qabul qilingan Soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari soliq yukini izchil ravishda pasaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish hamda soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirishga qaratilgan [1][2]. Ushbu islohotlar tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, shuningdek yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Soliq siyosatining tadbirkorlik muhitiga ta'siri masalasi xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. G'arb iqtisodchilarining tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, optimal soliq stavkalari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va investitsiyalar oqimini ko'paytirish uchun muhim ahamiyatga ega. Laffer egri chizig'i nazariyasi soliq stavkalarining haddan tashqari oshirilishi byudjet daromadlarining kamayishiga olib kelishi mumkinligini isbotlaydi [3].

Postsovet makonidagi davlatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli soliq islohotlari bir necha asosiy tamoyillarga asoslanadi: soliq tizimining soddaligi va shaffofligi, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligi, tadbirkorlar va davlat o'rtasidagi ishonch muhiti. O'zbekiston kontekstida esa soliq siyosati transformatsion iqtisodiyot sharoitida amalga oshirilmoqda, bu esa o'ziga xos yondashuvlarni talab qiladi[4]

Mahalliy tadqiqotchilar soliq yukini pasaytirish va soddalashtirilgan soliq rejimlarini joriy etishning kichik biznes rivojiga ijobiy ta'sirini ta'kidlaydilar. Ayniqsa, aylanmadan soliqqa o'tish, qo'shilgan qiymat soligi (QQS) stavkalarini barqarorlashtirish va turli imtiyozlarni joriy etish tadbirkorlarning faoliyat ko'rsatishi uchun qulay muhit yaratmoqda [5].

Yashirin iqtisodiyot muammosi ham soliq siyosati bilan chambarchas bog'liq. Yuqori soliq stavkalari va murakkab soliq ma'muriyatchiligi ko'pincha tadbirkorlarni norasmiy sektorga undaydi [6].

O'zbekistonda 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, yashirin iqtisodiyot ulushi YIM ning 33,3% ni tashkil etgan, ammo maqsadli chora-tadbirlar natijasida bu ko'rsatkich 2025-yilda 29% gacha kamayishi rejalashtirilmoqda [7].

Raqamlashtirish va soliq ma'muriyatchiligi avtomatizatsiyasi ham muhim yo'nalish hisoblanadi. Elektron hisob-fakturalar, onlayn hisobot tizimlari va subsidiya platformalari soliq to'lovchilar va davlat o'rtasidagi o'zaro aloqani sezilarli darajada soddalashtirmoqda [8]. 2025-yildan boshlab tadbirkorlar uchun bir qator hisobotlarni soliq organlari o'zi shakllantirishi joriy etilmoqda, bu esa ma'muriy yukni 27% ga kamaytirishi kutilmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli soliq islohotlari uchun nafaqat stavkalarni o'zgartirish, balki butun soliq tizimini modernizatsiya qilish, soliq xizmatlarini takomillashtirish va tadbirkorlar bilan davlat o'rtasidagi dialogni mustahkamlash zarur [9]. O'zbekiston ham shu yo'l bilan harakatlanmoqda, ammo hali ham bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularni hal etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi.

Tadqiqotlar metodologiyasi

Ushbu tadqiqot amaliy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, quyidagi metodlardan foydalanilgan:

Hujjatli tahlil metodi – O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Ayniqsa, lex.uz saytidagi qonunchilik hujjatlari chuqur o'rganildi;

Statistik tahlil metodi – stat.uz va soliq.uz rasmiy saytlaridan 2023-2025-yillar davriga oid statistik ma'lumotlar to'plandi va tahlil qilindi. Soliq tushum dinamikasi, tadbirkorlar soni, yashirin iqtisodiyot ko'rsatkichlari kabi asosiy parametrlar o'rganildi;

Qiyosiy tahlil metodi – Turli yillar va turli soliq rejimlari bo'yicha ma'lumotlar taqqoslandi. 2024 va 2025-yillarda joriy etilgan soliq o'zgarishlarining ta'siri baholandi;

Kontent-tahlil metodi – Rasmiy saytlarda e'lon qilingan axborotlar, press-revizlar va me'yoriy hujjatlar mazmuni tahlil qilindi.

Tadqiqot ma'lumotlari manbalarini quyidagilar tashkil etdi:

- O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti (stat.uz);

- Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz);
- Davlat soliq qo'mitasi rasmiy veb-sayti va ma'lumotlar bazasi (soliq.uz);
- Hukumat va Prezident rasmiy saytlarida e'lon qilingan hujjatlar.

Tahlil va natijalar muhokamasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2024-yil 24-dekabrda 2025-2027-yillarga mo'ljallangan soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarini tasdiqlagan qonunni imzoladi. Ushbu hujjatga muvofiq, 2025-yil uchun asosiy soliq stavkalari saqlanib qoldi. Jadval 1da 2025-yildagi asosiy soliq stavkalari keltirilgan.

Jadval 1.

O'zbekistonda 2025-yildagi asosiy soliq stavkalari

Soliq turi	Stavka	Manba
Foyda solig'i	15%	[10]
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	12%	[10]
Ijtimoiy soliq (budjet tashkilotlari)	25%	[10]
Ijtimoiy soliq (boshqa tashkilotlar)	12%	[10]
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)	12%	[10]
Yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig'i	1,5%	[10]

Muhim jihat shundaki, Prezident qarori bilan QQS va daromad solig'i stavkalari 2028-yilgacha oshirilmاسligi belgilandi. Bu tadbirkorlar uchun uzoq muddatli rejalashtirish imkonini beradi va investitsiya muhitini barqarorlashtiradi.

Soliq imtiyozlari va rag'batlantirish choralari

2025-yil uchun bir qator soliq imtiyozlari joriy etildi. Ularning eng muhimlari:

1. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM): Umumiy quvvati 100 kVt gacha bo'lgan QTEM qurilmalaridan foydalangan holda elektr energiyasini realizatsiya qilishdan olingan foyda 0% stavkada soliqqa tortiladi. Stavka QTEM qurilmalari ishga tushirilgan oydan boshlab 3 yil davomida qo'llaniladi. Quyosh panellari quvvatining kamida 25% miqdorida elektr energiyasini to'plash tizimi bilan jihozlangan qurilmalar uchun bu imtiyoz 10 yil davomida amal qiladi.

2. Nashriyot-matbaa faoliyati: 2025-yil 1-yanvardan 2029-yil 1-yanvargacha nashriyot-matbaa faoliyati bilan shug'ullanuvchilar olingan daromadlaridan foyda solig'ini to'lashdan ozod qilinadi (foiz ko'rinishidagi daromadlar bundan mustasno). Buning uchun ushbu faoliyat turidan olingan daromadlar hisobot davri yakunlari bo'yicha jami daromadining kamida 90%ini tashkil etishi kerak.

3. Umumiy ovqatlanish korxonalari: 2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvargacha umumiy ovqatlanish korxonalari uchun foyda solig'i stavkasi 2 barobarga kamaytirildi (7,5%).

4. Xizmatlar sohasi: Prezidentning 2022-yil 27-yanvardagi qarorida nazarda tutilgan xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlarga 1 foizlik ijtimoiy soliq stavkasining amal qilish muddati 2028-yil 1-yanvargacha uzaytirildi.

5. Kambag'al oilalar a'zolarini ishga qabul qilish: Mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 1,5 baravaridan kam bo'lmagan oylik ish haqi to'langan holda, kambag'al oila a'zolarini ishga qabul qilgan tadbirkorlik subyektlari ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo'yicha to'laydi.

Lex.uz saytida joylashgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining tegishli moddalariga muvofiq, ushbu imtiyozlar tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va ijtimoiy masalalarni hal etishga qaratilgan. Xususan, Soliq kodeksining 13-moddasida ta'kidlanishicha, soliq to'g'risidagi qonunchilik hujjatlaridagi barcha bartaraf etib bo'lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin etiladi.

Yashirin iqtisodiyot va soliq tushumlari dinamikasi

O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha izchil choralarni amalga oshirilmoqda. Stat.uz ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil 9 oyida kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi 36,1 milliard AQSh dollaridan ortiq tashkil etdi. Norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi yalpi ichki mahsulotning 33,3% ni tashkil etdi. Ammo yashirin iqtisodiyot ulushi 2017-yildagi 50% dan 2024-yilda 35% gacha kamaygan. Yaqin istiqbolda yana 79 trillion so'mlik kuzatilmayotgan iqtisodiyotni statistika bilan qamrab olib, uning ulushini 29% gacha tushirish imkoniyati mavjud.

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda quyidagi omillar muhim rol o'ynadi:

1. Raqamlashtirish: Onlayn-kassa tizimlari, elektron hisob-fakturalar va raqamli platformalarning joriy etilishi soliq nazoratini kuchaytirdi.

2. Soliq ma'muriyatchiligi soddalashtirish: 2026-yildan boshlab yer, mol-mulk, ijtimoiy va daromad soliqlari hisobotlarini shakllantirish bo'yicha tadbirkorlar majburiyati bekor qilinadi. Bu hisobotlarni soliqchilarning o'zi bepul to'ldirib beradi.

3. Jarimalar miqdorini kamaytirish: Kichik biznes uchun soliq hisobotlarini vaqtida taqdim etmaganlik uchun ma'muriy jarima miqdori 10 baravardan 3 baravariga (1,2 million so'mga) tushirildi.

4. Soliq amnistiyasi: 2025-yilda 20 mingdan ziyod tadbirkorga "amnistiya" e'lon qilindi, soliq tekshiruvlari bo'yicha 16 trillion so'mlik xato va kamchiliklar bo'yicha jazo qo'llanmadi.

Xulosa va takliflar

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari tadbirkorlik muhitini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qilmoqda. 2025-2027-

yillar uchun ishlab chiqilgan soliq siyosati asosiy yo'nalishlar soliq yukini pasaytirish, tizimni soddalashtirish va raqamlashtirish orqali biznes uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Soliq stavkalarining barqarorligi (QQS va foyda solig'i stavkalari 2028-yilgacha oshirilmazligi) tadbirkorlar uchun uzoq muddatli rejalashtirish imkonini beradi va investitsiya jozibadorligini oshiradi.
2. Maqsadli soliq imtiyozlari (qayta tiklanuvchi energiya, nashriyot-matbaa, umumiy ovqatlanish, xizmatlar sohasi) iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini rag'batlantirmoqda va ijtimoiy masalalarni hal etishga yordam bermoqda.
3. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish (onlayn-kassa, elektron hisobotlar, subsidiya platformalari) soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirmoqda va tadbirkorlar uchun ma'muriy yukni kamaytirilmoqda.
4. Yashirin iqtisodiyot ulushining 2017-yildagi 50% dan 2025-yilda 29% gacha (prognoz) kamayishi soliq siyosati va nazorat choralarining samaradorligini ko'rsatadi.
5. Jarimalar miqdorini kamaytirish va amnistiya e'lon qilish davlat va tadbirkorlar o'rtasidagi ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ammo tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash uchun quyidagi takliflarni berish mumkin:

Soliq ma'muriyatchiligi raqamlashtirish jarayonini yanada tezlashtirish: Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili texnologiyalarini joriy etish orqali soliq hisobotlarini avtomatik tekshirish va xatolarni aniqlash tizimini yaratish zarur;

Kichik biznes uchun soddalashtirilgan soliq tizimini yanada takomillashtirish: Yagona soliq to'lovchilari uchun qat'iy stavkalarni kamaytirish va aylanma soliqdan QQSga o'tishni rag'batlantirish choralarini kuchaytirish maqsadga muvofiq;

Soliq konsultatsiyalari xizmatini rivojlantirish: Har bir hududda bepul soliq maslahat markazlarini tashkil etish orqali tadbirkorlarning soliq savodxonligini oshirish;

Xalqaro tajribadan yanada kengroq foydalanish: OECD mamlakatlari va boshqa rivojlangan davlatlarning eng yaxshi amaliyotlarini o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirilgan holda qo'llash;

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda bosqichma-bosqich yondashuv: Represiv choralardan ko'ra, rasmiylashtirish uchun imtiyozlar berish va oson ro'yxatdan o'tish tartibini joriy etish samaraliroq bo'lishi mumkin;

Soliq siyosatini ishlab chiqishda tadbirkorlar bilan dialogni kuchaytirish: Yangi soliq o'zgarishlarini joriy etishdan oldin tadbirkorlik birlashmalari va sanoat-savdo palatalari bilan keng muhokama qilish.

Zamonaviy sharoitda soliq siyosati nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy va iqtisodiy vosita sifatida qaralishi kerak. U davlat byudjetini to'ldirish bilan birga, tadbirkorlik

faoliyatini rag'batlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, ish o'rinlarini yaratish va aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilishi lozim. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari to'g'ri yo'nalishda borayotganligidan dalolat beradi, ammo bu jarayonni davom ettirish va yanada chuqurlashtirish zarur.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrdagi PQ-455-son qarori "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/uz/docs/-7283107>
2. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O'RQ-1014-son Qonuni "Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-7279923>
3. Laffer A. The Laffer Curve: Past, Present, and Future. The Heritage Foundation. Backgrounder №1765, 2004.
4. Bird R.M., Zolt E.M. Technology and Taxation in Developing Countries: From Hand to Mouse. National Tax Journal, 2008, vol. 61, no. 4, pp. 791-821.
5. Aliyev B.H. Kichik biznesni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari va takomillashtirish yo'llari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, 2023, №2, 45-58 betlar.
6. Schneider F., Enste D.H. Shadow Economies: Size, Causes, and Consequences. Journal of Economic Literature, 2000, vol. 38, no. 1, pp. 77-114.
7. O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot ulushini 29% gacha kamaytirish rejalashtirilmoqda. Spot.uz, 2025. <https://www.spot.uz/oz/2025/11/27/hidden-economy>
8. Kichik biznes uchun kechiktirilgan soliq hisobotlariga jarimalar 3 baravarga kamaytiriladi. Spot.uz, 2025. <https://www.spot.uz/oz/2025/08/20/tax-reports>
9. International Monetary Fund. Digital Revolutions in Public Finance. Washington, DC: IMF, 2018.
10. 2025-yilda soliqlarda qanday o'zgarishlar bo'ldi? Gazeta.uz, 2025. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/10/taxes-2025/>